FARG‘ONA VILOYATIDA QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARINI YETISHTIRISH VA QAYTA ISHLASHNING GEOGRAFIK JIHATLARI

Madaminov Zafarjon Xudoyberdievich
Farg‘ona davlat universiteti, Geografiya kafedrasi dotsenti, g.f.f.d(PhD)
E-mail: zafarjonmadaminov23@gmail.com
Akramova Maftunaxon Abror qizi
Mamurova Sabina Kamoldin qizi
Farg‘ona davlat universiteti, Geografiya yo‘nalishi 4-kurs talabalari

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Farg‘ona viloyatida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishning hududiy tarkibi, uning tabiiy-geografik va ijtimoiy-iqtisodiy omillari hamda agrosanoat integratsiyasi jarayonida xomashyoni qayta ishlash tarmoqlarining hududiy tashkil etilishi kompleks tahlil qilingan. Tadqiqotda viloyat agrosanoat majmuasining ichki tarmoq va hududiy mutanosibliklari, agroklasterlar faoliyati, tumanlarning ixtisoslashuvi, logistika markazlari va agrologistika quvvatlarining joylashuvi iqtisodiy-geografik nuqtai nazardan batafsil ochib berilgan. Real statistik ma’lumotlar asosida viloyat tumanlarining qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishidagi salmog‘i, meva-sabzavot, polizchilik, paxtachilik, g‘allachilik va chorvachilik tarmoqlari bo‘yicha ixtisoslashuvi hududiy tiplarga ajratilgan. Qayta ishlash korxonalarining xomashyo bazasi bilan hududiy aloqalari, agrar tarmoqda qiymat zanjirini shakllantirish muammolari hamda sohani barqaror rivojlantirishning istiqbolli geografik yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *iqtisodiy geografiya, agrosanoat majmuasi, agroklaster, hududiy ixtisoslashuv, Farg‘ona viloyati, qishloq xo‘jaligi geogafiyasi, qayta ishlash sanoati, qiymat zanjiri.*

Kirish. Jahonda aholi sonining barqaror o‘sib borishi, urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi hamda global iqlim o‘zgarishlari kuzatilayotgan hozirgi davrda oziq-ovqat xavfsizligini kafolatli ta’minlash dunyo mamlakatlari oldida turgan eng strategik vazifalardan biriga aylandi. BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) xulosalariga ko‘ra, kelgusi o‘n yilliklarda oziq-ovqatga bo‘lgan global talab 50 foizdan ziyod ortishi kutilmoqda. Bunday murakkab sharoitda nafaqat yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish, balki yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi xomashyosini saqlash, isrofgarchiliklarni keskin kamaytirish hamda sanoat asosida chuqur qayta ishlash negizida yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish xalqaro agrar iqtisodiyotning ustuvor yo‘nalishi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Dunyo amaliyotida agrosanoat integratsiyasining hududiy modellari, agrologistika tizimlarining fazoviy optimallashuvi hamda agrar ishlab chiqarishning klaster tizimiga o‘tishi hududlarning kompleks iqtisodiy barqarorligini belgilovchi bosh omil sanaladi. Ayniqsa, dehqonchilik madaniyati yuqori, biroq sug‘oriladigan yer resurslari muayyan cheklanganlikka ega bo‘lgan voha mintaqalarida qishloq xo‘jaligi xomashyosini yetishtirish bilan uni qayta ishlovchi sanoat tarmoqlari o‘rtasidagi fazoviy-tarkibiy mutanosiblikni ta’minlash iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning dolzarb tadqiqot obyekti hisoblanadi [4].

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan agrar islohotlar qishloq xo‘jaligini an’anaviy xomashyo yetishtiruvchi sohadan yuqori texnologiyalarga asoslangan, diversifikatsiyalashgan va raqobatbardosh tayyor mahsulotlar eksport qiluvchi sanoatlashgan tarmoqqa aylantirishga qaratilgan. 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida hamda Qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasida yer unumdorligini oshirish, suv tejamkor agrotexnologiyalarni joriy etish, monoekinlik qoldiqlariga to‘liq chek qo‘yish, intensiv bog‘dorchilik, tokchilik va sabzavot-polizchilikni rivojlantirish hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash darajasini tubdan oshirish ustuvor maqsad etib belgilangan [1].

Farg‘ona vodiysining markaziy va janubiy qismini egallagan Farg‘ona viloyati o‘ziga xos tabiiy-geografik o‘rni, qulay quyoshli kunlar davomiyligi, unumdor bo‘z va o‘tloqi

tuproqlari, boy dehqonchilik an’analari va ulkan mehnat salohiyati bilan ajralib turadi. Biroq viloyatning eng muhim geodemografik xususiyati shundaki, u respublikada aholi zichligi eng yuqori bo‘lgan hududlardan biridir (1 kv. km ga 580 kishidan ziyod to‘g‘ri keladi). Jon boshiga to‘g‘ri keladigan sug‘oriladigan yer maydoni o‘rtacha 0,08 gektarni tashkil etadi. Bunday sharoitda qishloq xo‘jaligi yerlaridan ekstensiv yo‘l bilan foydalanishning imkoniyati mutlaqo mavjud emas; soha rivoji faqatgina yerlarni intensiv ishlov berish, hududiy ixtisoslashuvni optimallashtirish, xomashyoni birlamchi va chuqur qayta ishlash korxonalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri qishloq joylarida joylashtirish orqali qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratishni taqozo etadi.

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. Farg‘ona viloyati qishloq xo‘jaligi va agrosanoat majmuasi faoliyatining hududiy jihatlarini kompleks iqtisodiy-geografik nuqtai nazardan o‘rganish quyidagi obyektiv va subyektiv omillar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, mavzuning dolzarbligini belgilaydi:

Birinchidan, demografik omil va bandlik muammosi. Farg‘ona viloyati qishloq aholisi salmog‘i bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lib, qishloq hududlarida yangi mehnat resurslarining surunkali oqimi kuzatilmoqda. Cheklangan yer sharoitida aholini band qilishning eng samarali yo‘li — qishloq xo‘jaligi xomashyosini saqlash, saralash, quritish, konservalash va tayyor iste’mol mollari ishlab chiqarish bo‘yicha ixcham qayta ishlash tarmoqlarini bevosita qishloq joylariga kirib borishini ta’minlashdir. Bu nafaqat mehnat bozoridagi bosimni yumshatadi, balki qishloq aholisining daromad manbalarini karrasiga oshiradi.

Ikkinchidan, global iqlim o‘zgarishi va suv tanqisligi omili. Markaziy Osiyoda, xususan Sirdaryo havzasida suv resurslari taqchilligi keskin kuchayayotgan sharoitda Farg‘ona viloyatida sug‘orish tarmoqlarining gidrogeografik holati, ekin maydonlarining suv ta’minotiga ko‘ra hududiy taqsimlanishi o‘ta muhimdir. Suvni ko‘p talab qiluvchi ekinlarni qisqartirib, tomchilatib sug‘oriladigan intensiv bog‘lar va uzumzorlarni kengaytirish qishloq xo‘jaligi geografiyasining dolzarb tadqiqot yo‘nalishiga aylandi.

Uchinchidan, agrosanoatda hududiy nomutanosibliklarning mavjudligi. Viloyatda yetishtirilayotgan mashhur Oltiariq uzumi, Quva anori va gilosi, Rishton va Bog‘dod sabzavotlari mintaqaviy brend sifatida dunyo bozorlariga chiqayotgan bo‘lsa-da, ularni saqlash, logistika qilish va sanoat asosida qayta ishlash korxonalarining tumanlar kesimida notekis joylashganligi xomashyo yo‘qotishlariga (hosilning 15–20 foizigacha) olib kelmoqda. Ayrim chekka tumanlarda xomashyo yetarli bo‘lgani holda zamonaviy qayta ishlash quvvatlari mavjud emas, qayta ishlash korxonalari esa asosan shahar aglomeratsiyalarida to‘planib qolgan.

To‘rtinchidan, agrar sohada klaster modeli va vertikal integratsiyaning fazoviy tuzilishini o‘rganish zarurati. Paxta-to‘qimachilik va meva-sabzavotchilik klasterlarining xomashyo zonalari bilan hududiy aloqalarini, agrologistika markazlarining geografik o‘rnini muvofiqlashtirish soha samaradorligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Mazkur muammolar tizimini iqtisodiy geografik metodlar, kartografik va qiyosiy-hududiy tahlil asosida chuqur o‘rganish milliy iqtisodiyot uchun yuksak amaliy ahamiyat kasb etadi.

Muhokama va natijalar. Farg‘ona viloyati qishloq xo‘jaligining hududiy tuzilishi va tarmoq ixtisoslashuvi viloyatning orografik tuzilishi, relyef shakllari, gidrografik tarmog‘i hamda iqlimiy resurslari bilan belgilanadi. Viloyat hududi shimolda Sirdaryo va Markaziy

Farg‘ona pasttekisliklaridan boshlanib, janubda Oloy tog‘ tizmasining etaklari va baland adirliklarigacha bo‘lgan o‘ziga xos geomorfologik amfiteatrni tashkil etadi.

Tabiiy-geografik va landshaft xususiyatlariga ko‘ra, viloyat qishloq xo‘jaligi hududi 3 ta asosiy tabiiy-xo‘jalik zonasiga ajratiladi:

1. Janubiy adir va tog‘oldi zonasi (So‘x, Farg‘ona, Quva tumanlarining adirlik qismlari). Ushbu zona havo haroratining qulayligi, kuchli shamollarga kam moyilligi va shag‘alli-qumloq tuproqlari bilan bog‘dorchilik va tokchilikka ixtisoslashgan. Ayniqsa, so‘nggi yillarda suv tejamkor nasos agregatlari orqali o‘zlashtirilayotgan yangi adir yonbag‘irlarida zamonaviy intensiv bog‘lar (olxo‘ri, olcha, gilos, o‘rik, anor) tashkil etilmoqda.

2. Markaziy qadimdan sug‘oriladigan allyuvial-prollyuvial tekislik zonasi (Oltiariq, Rishton, Bog‘dod, Uchko‘prik, Buvayda, Toshloq tumanlari hamda Quvasoy atrofi). Ushbu zona qalin madaniylashgan o‘tloqi-bo‘z tuproqlari va Katta Farg‘ona kanali, Janubiy Farg‘ona kanali tizimlari orqali kafolatli suv ta’minotiga ega. Bu yerda uzumchilik, ertapishar polizchilik, sabzavotchilik (ayniqsa, ochiq dalada va issiqxona sharoitida pomidor, bodring, bulg‘or qalampiri) juda yuksak hosildorlikni ta’minlamoqda.

3. Shimoliy va g‘arbiy Markaziy Farg‘ona cho‘l-to‘qay massivi hamda Sirdaryo bo‘yi tekisliklari (Yozyovon, Qo‘shtepa, Dang‘ara, O‘zbekiston, Beshariq tumanlari). Ushbu hududlar issiqlik resurslarining ko‘pligi, biroq tuproqlarning turli darajada sho‘rlanganligi va yer osti suvlarining yuzaligi bilan xarakterlanadi. Shu sababli mazkur zonada paxtachilik, g‘allachilik, sholichilik hamda sut-go‘sht chorvachiligi asosiy ixtisoslashuv tarmoqlari bo‘lib qolmoqda.

Farg‘ona viloyati qishloq xo‘jaligining so‘nggi to‘rt yillik dinamikasi shuni ko‘rsatmoqdaki, ekin maydonlari tarkibida chuqur tarkibiy o‘zgarishlar amalga oshmoqda. Kam hosilli paxta va boshoqli don maydonlari optimallashtirilib, ularning o‘rnida yuqori daromad keltiruvchi intensiv meva va sabzavot plantatsiyalari tashkil etilmoqda.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishning tumanlararo taqsimotida katta tafovutlar mavjud. Quva tumani viloyatdagi barcha yetishtiriladigan mevalarning qariyb 28 foizini, Oltiariq tumani esa jami uzum hosilining 35 foizdan ortig‘ini bermoqda. Rishton, Bog‘dod va Uchko‘prik tumanlari sabzavotchilikda yetakchilik qilsa, paxta xomashyosining asosiy qismi Yozyovon, Beshariq, Qo‘shtepa, O‘zbekiston va Dang‘ara tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Tadqiqot jarayonida Farg‘ona viloyati agrosanoat majmuasini rivojlantirish va fazoviy muvofiqlashtirish yo‘lida quyidagi tizimli geografik muammolar aniqlandi:

1. Suv ta’minoti va yer monitoringi tizimining murakkabligi. So‘nggi yillarda Sirdaryo va viloyatning ichki tog‘ daryolari (Isfayramsoy, Shohimardonsoy, So‘x, Isfara) suv oqimining kamayishi natijasida janubiy va shimoliy tumanlardagi sug‘orish tizimlarida suv taqchilligi kuchaymoqda. Eskirgan tuproq o‘zanli ariq va kanallarda suvning filtratsiyaga ketishi va bug‘lanishi oqibatida suv isrofi 30–35 foizni tashkil etmoqda. Bu suv tejamkor zamonaviy tomchilatib sug‘orish tizimlarini barcha tumanlarda keng joriy etishni shart qilib qo‘ymoqda.

2. Qayta ishlash korxonalarining shahar markazlarida haddan tashqari jamlanishi (giperkonsentratsiya). Qayta ishlash zavodi va yirik fabrikalar asosan Farg‘ona, Qo‘qon va Quvasoy shaharlarida jamlangan. Natijada xomashyo yetishtiruvchi olis qishloq hududlaridan

mahsulotni tashish xarajatlari ortib, logistika zanjirida narxlar qimmatlashmoqda, sifat yo‘qotilmoqda.

3. Kichik va o‘rta sovutgichli hamda saralash quvvatlarining yetishmasligi. Oltiariq va Quva tumanlarida sovutgichli omborlar soni ko‘p bo‘lsa-da, Yozyovon, Dang‘ara, Beshariq, Bog‘dod tumanlarida bunday infratuzilma hali yetarli emas. Dala boshidayoq mahsulotni kalibrlash va standartlashtirish imkoniyati bo‘lmagani sababli tashqi bozorlarda mahsulotning raqobatdoshligi pasayadi.

4. Fermer, dehqon xo‘jaliklari va agroklasterlar o‘rtasidagi kooperatsion aloqalarning nomukammalligi. Xonadonlarda yetishtirilayotgan mahsulotlarni markazlashgan holda sotib olish va ularni sanoat korxonalariga kafolatli yetkazib beruvchi agrokooperatsiya tizimining to‘liq yo‘lga qo‘yilmaganligi narxlarning mavsumiy beqarorligiga olib kelmoqda.

Xulosa. Farg‘ona viloyatida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish va ularni qayta ishlash jarayonlarining geografik jihatlari bo‘yicha olib borilgan kompleks tadqiqotlar asosida quyidagi ilmiy va amaliy xulosalar shakllantirildi:

1. Hududiy ixtisoslashuvni tabiiy landshaft sharoitlariga mos ravishda yanada chuqurlashtirish zarur. Janubiy adirliklarda (Quva, Oltiariq, Farg‘ona tumanlari) suv tejamkor innovatsion texnologiyalar asosida danakli mevalar va intensiv tokzorlarni kengaytirish, markaziy zonada (Bog‘dod, Rishton, Buvayda) ertapishar poliz va sabzavotchilikni, shimoliy hududlarda esa (Yozyovon, Beshariq) sho‘rga chidamli ekinlar, g‘alla-paxta va chorvachilik klasterlarini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

2. Qayta ishlash quvvatlarini detsentralizatsiya qilish va xomashyo bazasiga bevosita yaqinlashtirish lozim. Quva, Oltiariq, Bog‘dod, Uchko‘prik va Beshariq tumanlari qishloqlarida meva-sabzavotlarni shok usulida muzlatuvchi, liofilizatsiya qiluvchi, tomat pastasi, sharbat va quritilgan mahsulotlar tayyorlovchi kichik va o‘rta innovatsion modulli korxonalarni barpo etish tashish xarajatlarini 2 barobarga qisqartiradi.

3. Multimodal agrologistika xablarini shakllantirish lozim. Viloyatning yirik transport tugunlarida — Marg‘ilon temir yo‘l bekati, Farg‘ona xalqaro aeroporti logistika markazi va Qo‘qon sanoat tugunida yagona «Sovuq zanjir» (Cold Chain) talablariga javob beruvchi zamonaviy agrologistika markazlarini tashkil etish va ularni raqamli geoaxborot tizimlari (GIS) orqali boshqarish eksport hajmini kamida 2,5 barobarga oshiradi.

4. Agrosanoatda vertikal kooperatsiya va klaster tizimini kengaytirish darkor. Dehqon va tomorqa yer egalari bilan qayta ishlash korxonalari o‘rtasida forvard shartnomalariga asoslangan barqaror agrokooperatsiya zanjirini yo‘lga qo‘yish qishloqda yashovchi aholi bandligini ta’minlash va xomashyo uzluksizligini kafolatlashning muhim vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Farg‘ona viloyatida qishloq xo‘jaligi xomashyosini yetishtirish bilan uni chuqur qayta ishlash sanoati o‘rtasidagi fazoviy mutanosiblikni ta’minlash nafaqat viloyatning oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlaydi, balki uning milliy va xalqaro bozordagi integratsiyalashgan yuqori daromadli agroindustrial hudud sifatidagi maqomini yanada yuksaltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. PF-5853-son Farmoni. – Toshkent, 2019-yil 23-oktabr.
2. Ahmadaliyev Y.I. Yer resurslaridan foydalanish geoekologiyasi. T.: Fan va texnologiyalar, 2014. – 340 b.

3. Farg‘ona viloyati statistika boshqarmasi. Farg‘ona viloyatining qishloq xo‘jaligi: Statistik to‘plam (2020–2024 yillar). – Farg‘ona, 2025. – 184 b.

4. Ibragimov L.Z. Namozov J. A. Qishloq xo‘jaligi geografiyasi. O‘quv qo‘llanma. Samarqand: SamDU nashriyoti, 2025. 161 b.

5. Soliyev A.S. Iqtisodiy geografiya: nazariya, metodika va amaliyot. Monografiya. – Toshkent: Kamalak, 2014. – 416 b.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi: Statistik to‘plam. – Toshkent, 2024. – 248 b.

UCHKO‘PRIK TUMANIDA BIRLAMCHI TIBBIY XIZMATLARNING HUDUDIY TASHKIL ETILISHI VA AHOLIGA QULAYLIGINI BAHOLASH

Abdinazarova Xidoyatxon Oripovna,
Abdullayeva Mahliyoxon Po‘latjon qizi,
Sotvoldiyeva Mulkshoda Sherzod qizi
Qo‘qon davlat universiteti
xidoyatabdinazarova@mail.com ORCID: 0009-0004-6763-2317

Annotatsiya. *Maqolada Uchko‘prik tumanida birlamchi tibbiy xizmatlarni hududiy baholash masalasi rasmiy demografik ma’lumotlar va ilmiy adabiyotlar asosida o‘rganildi. SIAT bazasining 2024-yil 1-yanvar ko‘rsatkichlari bo‘yicha jami aholi 241,4 ming, qishloq aholisi 195,4 ming va shahar aholisi 46,0 ming kishini tashkil etgan. Tarkibiy hisoblash natijasida qishloq aholisi ulushi taxminan 80,9 foiz ekani aniqlandi. Xizmatga yetib borish vaqti, kadrlar ta’minoti va aholi qamrovini birgalikda baholash metodikasi taklif etildi. Mahallalar qulayligini aniqlash uchun qo‘shimcha geoma’lumot va kuzatuv zarur.*

Kalit so‘zlar: *Uchko‘prik tumani, tibbiyot geografiyasi, birlamchi tibbiy xizmat, hududiy qulaylik, transport, qishloq aholisi.*

Kirish. Birlamchi tibbiy xizmat aholi kundalik murojaat qiladigan yordamning boshlang‘ich bo‘g‘inidir. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ushbu xizmatlarni aholining yashash joyiga imkon qadar yaqin tashkil etish zarurligini ta’kidlaydi [4]. Geografik tadqiqotda muassasaning mavjudligi bilan birga aholining undan amalda foydalana olishiga e’tibor qaratiladi. Maqolaning asosiy maqsadi Uchko‘prik tumani uchun demografik asosni tahlil qilish va hududiy qulaylikni baholash mezonlarini belgilashdir.

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. Tibbiy xizmatga qulaylikni faqat muassasalar soni bilan baholash yetarli emas. Bir xil masofa turli yo‘l va transport sharoitida turlicha vaqt hamda xarajat talab qiladi. Qishloq aholisi ulushi yuqori bo‘lgan hududda mahallalar kesimidagi baholash umumiy tuman ko‘rsatkichlari yashirishi mumkin bo‘lgan farqlarni tekshirishga yordam beradi. Ushbu jihatlar Uchko‘prik tumani misolida aholi joylashuvi va xizmatlar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni geografik o‘rganishni dolzarb qiladi.

Materiallar va metodlar. Tadqiqot ikkilamchi ma’lumotlarga asoslangan tavsifiy va metodik tahlil sifatida bajarildi. Demografik manba – Milliy statistika qo‘mitasining SIAT bazasidagi jami, qishloq va shahar doimiy aholisi bo‘yicha yillik qatorlari hisoblanadi [2]. Bazadagi 2024-yil ustuni yil boshiga, ya’ni 2024-yil 1-yanvarga tegishli; o‘lchov birligi ming kishidir. Nazariy asos sifatida JSST baholash doirasi [3] va GIS yordamida fazoviy qulaylikni o‘lchash tadqiqoti [1] olindi.

Aholi guruhlari ulushi $U = N / P \times 100$ formulasi bilan hisoblandi. Bunda N – guruh aholisi, P – jami aholi. Manbadagi sonlar 0,1 ming kishi aniqligida berilgani sababli hisoblangan ulushlar taxminiy bo‘lib, bir o‘nlik xonagacha yaxlitlandi. Hududiy hisoblar uchun muassasa koordinatasi, ish vaqti, shifokorlarning to‘liq stavka ekvivalenti, biriktirilgan